


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

61010200 – Sport faoliyati bakalavriat ta'lif yo'naliishing

MALAKA TALABLARI

Chirchiq — 2024



ISHLAB CHIQILGAN:
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "25" 06 dagi 218 - sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’naliishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilarini takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

1. Umumiy tavsif.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalar.	5
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:.....	7
4. Fanlar katalogining tuzilishi:	8
Bibliografik ma'lumotlar	10
Kelishuv varag'i	11

1. Umumiy tavsif

61010200 – Sport faoliyati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **61010200 – Sport faoliyati** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar:

mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan Oliy ta'lim muassasasining boshqaruvi xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi Oliy ta'lim muassasasining talabalar;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

Oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituryentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

61010200 – Sport faoliyati – Xizmat ko'rsatish sohasiga oid yo'nalish bo'lib, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat faoliyatini tashkil etish, sport turlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish, maktabgacha, umumiy o'rta, professional ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o'tkazish, sport turlariga oid harakatlarga o'rgatish, jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid vositalar, tamoyillarni qo'llash, harakatlarga o'rgatish, yosh davrlariga nisbatan vosita va uslublarni tanlash, jismoniy yuklamalarni miqdor va sifat jihatdan boshqarish va individuallashtirish, jismoniy mashg'ulotlarni rejalahtirish, nazorat va tahlil qilib borish, sport faoliyatining asosiy tamonlarini boshqarish, sport sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim muassasalari hamda ulardagi o'quv jarayonlari;

sport maktablari, ixtisoslashgan sport maktablari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarigi sport mashg'ulotlari jarayoni;

sport turlari bo'yicha mashg'ulotlarini tashkil etish vosita va usullari;

sport jamoalari, sport klublari, ishlab chiqarish korxonalari;

sport musobaqalari.

61010200 – Sport faoliyati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari xizmatlar sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va professional ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, sport maktablari, ixtisoslashgan sport maktablari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida parasport turlari bo'yicha sport mashg'ulotlari olib borish, sport jamoalari, sport klublari, sport musobaqalari, ishlab chiqarish korxonalarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi..

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

sport va jismoniy tarbiya;

pedagogik (umumiy o'rta va professional ta'lim tizimida);

ilmiy-tadqiqot;

foydalanish va servis xizmatini ko'rsatish;

sog'lomlashtirish va tiklash;

tashkiliy-boshqaruv.

1.2.4. Kasbiy vazifalar.

61010200 – Sport faoliyati ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va professional ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslari va sport mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borish;

sport maktablari, ixtisoslashgan sport maktablari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlaridagi sport mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borish;

sport maktablari, ixtisoslashgan sport maktablari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari hamda sport turlari bo'yicha federatsiyalarda tashkiliy-uslubiy faoliyat olib borish;

sport jamoalari, sport klublarida sport mashg'ulotlarini olib borish va sport musobaqalarini tashkil etish;

ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish;

ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;

tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada Oliy ta'limni davom ettirishga;

kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadilar.

Sport va jismoniy tarbiya faoliyatida:

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlarni qo'llash;

sport mashg'uloti nazariyasining paydo bo'lish va shakllanish evolyutsiyasini, tanlangan sport turining tibbiy-biologik va psixologik asoslarini hamda mashg'ulot texnologiyasini, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatning sanitariya-gigiyenik asoslarini tushunish;

bolalar va yoshlarda tanlangan sport turi bilan shug'ullanish motivatsiyasini shakllantira olish, shug'ullanuvchilarda halol sport raqobatining axloqiy tamoyillarini tarbiyalash;

maktabgacha ta'lim, umumi o'rta ta'lim va professional ta'lim muassasalarida "Jismoniy tarbiya va sport"ga oid fanlardan o'rnatilgan tartibda dars berish;

tanlangan sport turida individning antropometrik, jismoniy va psixologik xususiyatlarini zamonaviy metodikalarni qo'llagan holda sport orientatsiyasi va saralash tizimini amalga oshirish;

bolalar va o'smirlar sporti sohasida va ommaviy razryadli sportchilar bilan ishslash bo'yicha aniq mashg'ulotlarning uzoq muddatga mo'ljallangan va tezkor reja hamda dasturlarni ishlab chiqish;

tanlangan sport turi bo'yicha ommaviy razryadli sportchilar bilan mustaqil ravishda sport mashg'ulotlarini olib borish;

mashg'ulotlarni olib borishda xavfsizlik texnikasini ta'minlash;

tanlangan sport turida pedagogik nazorat va korreksiya texnologiyalari hamda inson jismoniy holatini boshqarish vositalari va usullarini qo'llash;

rejaviy va hisobot hujjatlarini tuzish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini hamda sport musobaqalarini tashkil qilish.

Umumi o'rta va professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatida:

maktabgacha ta'lim, umumi o'rta, professional ta'lim tizimining ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'naliishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;

o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni toplash, umumlashtirish va tahlil etish;

ta'lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o'zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish;

ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish; o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va o'tkazish;

ta'lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta'minlash.

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tatbiq etish;

mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jahbalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi dolzarb muammolarni aniqlash.

Jismoniy tarbiya va sportga oid ilmiy tekshirishlar bo'yicha namunaviy usullarda ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

Respublika va xorijda chop etilgan jismoniy tarbiya va sportga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish; ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

aprobatsiyadan o'tgan usullarni qo'llagan holda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatning turli jihatlarining samaradorligini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot o'tkazish;

matematik-statistik usullar, axborot texnologiyalari yordamida tadqiqot natijalarini qayta ishlash usullaridan foydalanish, umumlashtirish va xulosalarni shakllantirish.

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirot etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyatga tatbiq etishda qatnashish;

internet tarmog'ida sohaga tegishli eng yangi ilmiy, texnologik yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda qidirish va topish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik profiliga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay olishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asosli qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay olishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlarni qo'llay olish;

tegishli bakalavriat yo'nalihi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat va jamoat boshqaruv organlari hujjatlarini amaliy jarayonda qo'llay olish;

quyi tarkibiy bo'limlarda tezkor ish rejalarini tuzish va ularning bajarilishini ta'minlay olish;

innovatsion g'oyalardan foydalanishga tayyor bo'lish.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:

Malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalami shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalihi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv-tanishuv amaliyoti;
2. Pedagogik amaliyot;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

o'quv-tanishuv amaliyoti – jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

pedagogik amaliyot – pedagogik soha bo'yicha olingan bilimlarni amaliyotda sinash orqali amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga va mahoratni oshirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti – jismoniy tarbiya va sport faoliyati bo'yicha kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama-ning hajmi soatlarda	Kredit miqdori	Seme-stri
1.00		Majburiy fanlar	5340	178	
1.01	382JTOH2401	Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi	120	4	1
1.02	382SXRT2402	Sportda xorijiy til	120	4	1
1.03	382O'ZRT2403	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.04	382ANAT2404	Anatomiya	120	4	1
1.05	382STOM2405	Sport turlarini o'rgatish metodikasi (yengil atletika, gimnastika)	120	4	1
1.06	382O'EYT2406	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.07	382OTSQ2407	O'zbek tilining sohada qo'llanilishi	120	4	2
1.08	382DNSH2408	Dinshunoslik	120	4	2
1.09	382BXSB2409	Bioximiya va sport bioximiysi	120	4	2
1.10	382STOM2410	Sport turlarini o'rgatish metodikasi (basketbol, gandbol)	120	4	2
1.11	382MHVO2411	Milliy va harakatli o'yinlar, voleybolni o'rgatish metodikasi	180	6	3
1.12	382FALS2412	Falsafa	120	4	3
1.13	382JTSP2413	Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi	120	4	3
1.14	382FSPF2414	Fiziologiya va sport fiziologiyasi (1-qism)	120	4	3
1.15	382FSPF2415	Fiziologiya va sport fiziologiyasi (2-qism)	120	4	4
1.16	382SBIO2416	Sport biomexanikasi	120	4	4
1.17	382JINU2417	Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati (1-qism)	120	4	4
1.18	382JINU2418	Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati (2-qism)	120	4	5
1.19	382SMNA2419	Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari	120	4	6
1.20	382PSPS2420	Psixologiya va sport psixologiyasi (1-qism)	120	4	5
1.21	382PSPS2421	Psixologiya va sport psixologiyasi (2-qism)	120	4	6
1.22	382SPTR2422	Sport diyetologiyasi va farmakologiya	120	4	5
1.23	382SPTR2423	Sport tibbiyoti va reabilitologiya (1-qism)	120	4	5
1.24	382SPTR2424	Sport tibbiyoti va reabilitologiya (2-qism)	120	4	6
1.25	382JTSI2425	Jismoiy tarbiya va sportda inkluziv ta'lim	180	6	8
1.26	382BTBM2426	Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish (sport turlari bo'yicha) (1-qism)	180	6	1
1.27	382BTBM2427	Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish (sport turlari bo'yicha) (2-qism)	180	6	2
1.28	382O'MBM2428	O'quv-mashq bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish (sport turlari bo'yicha) (1-qism)	180	6	3
1.29	382O'MBM329	O'quv-mashq bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish (sport turlari bo'yicha) (2-qism)	180	6	4
1.30	382SMTB2430	Sport mahoratini takomillashtirish bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish (sport turlari bo'yicha) (1-qism)	180	6	5

1.31	382SMTB2431	Sport mahoratini takomillashtirish bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish (sport turlari bo'yicha) (2-qism)	120	4	6
1.32	382OSMB2432	Oliy sport mahorati bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish (sport turlari bo'yicha)	180	6	8
1.33	382TSTM2433	Ixtisoslikka kirish (sport turlari bo'yicha) (1-qism)	120	4	1
1.34	382TSTM2434	Ixtisoslikka kirish (sport turlari bo'yicha) (2-qism)	120	4	2
1.35	382TSTN2435	Tanlangan sport turi nazariyasi va uslubiyati (1-qism)	180	6	3
1.36	382TSTN2436	Tanlangan sport turi nazariyasi va uslubiyati (2-qism)	180	6	4
1.37	382TSTR2437	Tanlangan sport turida rejalashtirish va hakamlik faoliyati (1-qism)	120	4	5
1.38	382TSTR2438	Tanlangan sport turida rejalashtirish va hakamlik faoliyati (2-qism)	120	4	6
1.39	382TSTI2439	Tanlangan sport turida ilmiy-uslubiy faoliyat	180	6	8
2.00		Tanlov fanlari	720	24	45,68
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	720	24	4,5,6,8
Kvalifikatsiya		Trener, jismoniy tarbiya o'qituvchisi			
		Jami	6060	202	
	382MAPA0124	Malakaviy va pedagogik amaliyotlar	1140	38	
	382YDAT0124	Yakuniy davlat attestatsiyasi		0	
		Jami	1140	38	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruhi T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lif yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jahbasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rghanish natijalar, o'quv sikli, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlar, tanlangan sport turining tibbiy-biologik va psixologik asoslari, sport mashg'uloti nazariyasi, sanitariya-gigiyenik asoslar, sport turi bilan shug'ullanish motivatsiyasi, individning antropometrik, jismoniy va psixologik xususiyatlari, ommaviy razryadli sportchilar bilan ishlash, bolalar va o'smirlar sporti, sport orientatsiyasi va saralashi tizimi, pedagogik nazorat va korreksiya texnologiyalari, inson jismoniy holatini boshqarish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari, sport musobaqalari, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat va jamoat boshqaruv organlari, xavfsizlik texnikasi, innovatsion g'oyalar, sportchi, jamoa, sport klubi yoki tashkilotiga psixologik yordam, yosh toifasi, rivojlanish bosqichlari, sport-sog'lomlashtirish tizimi.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLGAN:

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Rektor _____ R. Matkarimov

2024-yil " ____ "



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi

Direktor M. Boltabayev

2024-yil " ____ "



O'zbekiston Respublikasi Sport
vazirligi

Vazir o'rinnbosari
Sh. Maxmudov

2024-yil " ____ "



O'zbekiston Milliy Olimpiya
Qo'mitasi

Bosh kotib O. Kasimov

2024-yil " ____ "



Respublika Olimpiya va paralimpiya
sport turlariga tayvorlash markazi

Direktor A. Mamatdalyev

2024-yil " ____ "



Respublika ta'lim markazi

Direktor Sh. Xudaykulov

2024-yil " ____ "



Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti

Rektor A. Kirgizbayev

2024-yil " ____ "



Namangan davlat universiteti

Rektor

S. Turg'unov

2024-yil " ____ "

